

## ISTIORA TAMSILIYA – TASVIRIY METAFORA

**Yusupov Bosit Sheraliyevich**

Oriental universiteti Lingvistika (arab tili) fakulteti

2-kurs magistranti

Tel: (91) 355 52 55

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada arab xalqining o'ziga xos notiqqligini aks ettiruvchi, arab tilshunosligining yetakchi bo'limlaridan biri balog'at ilmiga, xususan, arab balog'atining barcha zamonu makonlarda eng mashhur usullaridan biri bo'lib kelgan istioraning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda arab balog'ati, uning paydo bo'lishi haqida umumiy tushuncha va ta'riflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** istiora tamsiliya, ochiq va kinoya istiora, asliy va tabiiy istiora, Musharrah, mujarrad va mutlaq istioralar.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье одна из ведущих отраслей арабского языкознания, отражающая уникальное красноречие арабского народа, посвящена науке о половом созревании, в частности, анализу лингвопоэтических особенностей метафоры, являющейся одной из наиболее популярных методов арабского полового созревания во все времена и во всех местах. Работа дает общее понимание и определения арабской взрослой жизни и ее возникновения.*

**Ключевые слова:** истиора тамсилия, открытая и ироничная истиора, оригинальная и естественная истиора, мушарра, муджаррад и абсолютная истиора.

### ABSTRACT

*In this article, one of the leading branches of Arabic linguistics, reflecting the unique eloquence of the Arab people, is devoted to the science of puberty, in particular, to the analysis of the linguopoetic features of metaphor, which has been one of the most popular methods of Arab puberty in all times and places. The work provides a general understanding and definitions of Arab adulthood and its emergence.*

**Keywords:** istiora istiria, open and sarcastic istiora, Asli and natural istiora, Musharrah, abstract and absolute istiora.

## KIRISH

Istiora (tasviriy metafora)ning tarixini, uning majoz, tashbeh, kinoya kabi balogʻat vositalaridan farqli jihatlarini oʻrganish hamda istioraning lingvopoetik jihatlarini qadim arab manbalari asosida tadqiq qilish tashkil etadi. Shu bilan birga, tadqiqot ishini amalga oshirib, koʻzlangan maqsadga erishish uchun quyidagilar vazifa qilib belgilandi: - balogʻat ilmida istiora va uning tashbeh, majoz va kinoya bilan aloqalarini oʻrganish; - istioraning oʻziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslash;

- istioraning klassik arab adabiy namunalaridagi ahamiyatini oʻrganish; - istiora lingvopoetikasini misollar yordamida tahlil qilish va ochishdan iborat boʻladi.

Istiora tamsiliya (murakkab metafora, allegoriya) bu — predmetni tashbeh predmetiga aylantirish orqali uning turli tomonlari va xususiyatlarining istiora qilinishidir. Bunda oʻxshashi aytilmaydi, balki oʻxshatilganning bir nechta xususiyati aytiladi. Bu turdagi istiora «Bir qadam oldinga, bir qadam orqaga ketayotganingni koʻryapman» jumlasida mavjud.<sup>1</sup> Chunki gʻoyadan gʻoyaga ikkilanayotgan odamning mavhum holati bir qadam oldinga va bir qadam orqaga ketayotgan konkret (aniq) holatga tashbeh qilinadi. Yashirin ish bilan shugʻullanuvchi kishi haqida «Ostingdan suv quyadi»<sup>2</sup> deyish ham shunday tashbehlardan hisoblanadi. Ramziy iboralarni oʻz ichiga olgan sheʼrlarning aksariyati tamsiliy istiora ustiga qurilgan. Masalan, shoirning «Jangir boʻlsa, vaqt boʻlsa / Bu bandargohdan nomaʼlum tomonga ketar sassiz kema» misrasidagi ruhning oʻlim sari timsoli boʻlmish «sassiz kema» shunga misoldir.<sup>3</sup> Mujarradning oʻrnini bosuvchi mushahhas maʼnoni anglatuvchi ifodalovchi *istiora tamsiliyaga* ham masal deyiladi. Istiora tamsiliyaning xalq orasida keng tarqalgan turlari maqolga aylanib ketgan. Masalan, «Koʻrpangga qarab oyogʻingni uzat» yaʼni (oʻzing qila oladigan ishga kirish) iborasi shunga misol boʻla oladi.<sup>4</sup>

Alloh taolo Maryam surasining 4-oyatida:

«واشتعل الرأس شيبا»

Yaʼni «Boshga oq tutashdi», deb marhamat qilgan.

Bu oyatdagi otash va porlash (ishtioli), oqlash (ibydod) maʼnolari uchun olingan. Chunki ular koʻrinib turgani uchun hissiydir.

Yana Alloh taolo Yasin surasining 52-oyatida

«من بعثنا من مرقدا»

Yaʼni «Bizni yotgan joyimizdan kim qoʻzgʻatdi?!», deb marhamat qilgan.

<sup>1</sup> Rummoniy. Nuqot fil ijazil Qurʼan. — Kahire, Dorul-maorrif, —B. 79-87. Xotimiy. Risalatul Muziha. — Bayrut 1385/1965, —B. 40-44, 69-73.

<sup>2</sup> Ibn Sinan al-Hafajiy. Sirrul fasoha. -Bayrut 1402/1982, —B. 118-120.

<sup>3</sup> Ziyuddin ibnul-Asir. Al-Masalus soir. -Qohira 1411/1990, 1-jild, —B. 342-354.

<sup>4</sup> Sibavayh. Kitabu Sibavayhi. -Qohira 1985, 1-jild, —B. 316.

Oyatda yotish — uyqu (marqod) va o‘lim (mavt) ma’nosiga istiora qilingan bo‘lib, har ikki taraf ham aql bilan ma’lum bo‘ladigan kayfiyatlardir.<sup>5</sup>

“*Men quyoshni ko‘rdim*” misolida quyosh “*yuzy go‘zal odam*” ma’nosida olingan bo‘lsa, istiora tomonlari va o‘xshashlik jihati ko‘rinib turgani uchun, u Huddi shu tuyg‘uning emotsional (hissiy) istiorasiga o‘xshaydi. Quyosh so‘zi “sha’ni yuksak kishi” ma’nosida istiora qilinsa, tomonlar ko‘rinadigan (hissiy) bo‘lishiga qaramay, aql bilan biladigan kayfiyatga aylanadi.

Ilmi bayon mavzusiga oid eski balog‘at kitoblarida istiora turlicha tasniflangan bo‘lib, ulardan biri mustaqillik davrida yozilgan balog‘atga oid asarlarda ko‘p takrorlanadi. Ushbu nomlash va tasniflar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan istiora tamsiliya turlari yuqorida keltirib o‘tildi. Professor M.Bilgegil<sup>6</sup> istiora tamsiliyaning eng izchil tasnifi va izohlarini bergan. Shunga ko‘ra balog‘atda qo‘llaniladigan istiora tamsiliya turlarini quyidagicha sanab o‘tish mumkin:<sup>7</sup>

قسمان :

(أ) تصریحیة، وهي ما صرح فيها بلفظ المشبه به .

(ب) مكنية، وهي ما حذف فيها المشبه به ورمز له بشيء من لوازمه.<sup>8</sup>

(Istiora lug‘aviy majozdir, u ikki tarafidan biri tushirilgan tashbih, doim mushabbahga (ma’no jihatdan) bog‘lanib turadi). Atoulloh Husayniy: «Istiora majozning bir nav’idur. Majozning turli nav’lari bordur. Jumladan istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma’no orasindag‘i aloqa o‘xshashliqtur: sher lafziyu yuraklig kishi ma’nosidag‘idek»<sup>9</sup>. U ikki qism bo‘ladi:

1) ochiq istiora(metafora) – bunda jumlaning mushabbah bihi (o‘xshatish) lafzi bilan ochiq keltirilgan narsadir.

2) kinoyali istiora(metafora) – bunda jumlada mushabbah bihi (o‘xshatish) keltirilmagan narsadir.

Istioraning ruknlari uchta: المستعار منه (al-musta’ār minhu), المشبه به (zātu-l-mušabbah bihi), المستعار (al-musta’ār). «Tuzilishiga ko‘ra bir so‘z yoki iboradan tashkil topgan istiora «sodda istiora», birikmali istioralar «murakkab istiora» sanaladi. Istioralar tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. O‘xshatilgan narsa yoki tushuncha, ya’ni mushabbah tushirilgan istioralar «istiorai musarraxa», o‘xshovchi, ya’ni mushabbihun bihi tushirilgani esa «istiorai makniya» deb ataladi»<sup>10</sup>. Istiora yoki boshqa she’riy san’atlarning lutf bilan kelishi murakkab hollardan hisoblanadi va u

<sup>5</sup> Ibn Abul Isba. Badiul Qur’an. —Qohira 1377/1957,—B. 17-27.

<sup>6</sup> M.Kaya Bilgegil. Edebiyat Bilgi ve Teorileri. – Ankara 1980, —B. 154-169.

<sup>7</sup> Yahyo ibn Ziyod. Mavnil-Qur’on. – Qohira, 1374/1955, 2-jild, —B. 91, 156, 263.

<sup>8</sup> أحمد الهاشمي: جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. مطبعة السعادة سنة ١٩٣٢م. ص. 77

<sup>9</sup> Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’. Forschadan A.Rustamov tarjiması. —T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. —B. 219.

<sup>10</sup> Xo‘jayev M. Chustiy lirikasida istiora. Sharqshunoslik. №2. 2001. —B 3-5

shoirdan yuksak mahorat talab qiladi»<sup>11</sup>. «Istiora tashbihga yaqin bo‘lib, undan o‘zining ifodalanish usuli va ma‘nosining kengligi bilan farqlanadi. Istioraning yana asliyya, taba‘iyya turlari ham bor. Ifodalanishiga ko‘ra otlardan tashkil topgan istioralar «istiorai asliya», fe’llardan tuzilganlari esa «istiorai fe’liya» deyiladi<sup>12</sup>. Istiora ikki qism – asliy va tabaiyga bo‘linadi.

Asliy istiora deb unda yuritilgan labz ya'ni istiora uchun ishlatilgan so‘z jomid ism bo'lsa, istiorayi asliya deyiladi.

Istiora tabaiya ergashuvchi ya'ni tobe istiora bo'ladi, qachonki istiora uchun yuritilgan labz mushtaq ismdan yoki fe’ldan tashkil topgan bo'lsa, buni istiorayi tabaiya deb ismlanadi.

Har bir tabaiy (ergashuvchi tobe) istiora, uning qariynasi (haqiqiy ma'no berishlikdan man qilayotgan narsa) makniya (kinoyali) bo'lsa, ularning birida (ochiq yoki kinoya)da istiorani yuritilsa ikkinchisida yuritishlik man qilinadi.

Istiorayi musharraha deb – u bilan birga mushabbah bihga munosib bo‘ladigan narsani zikr qilingan, istiora jumlasidir. Ya’ni bilganimizdek istiora jumlasini bu ikki taraf (mushabbah mushabbah bih)dan biri hazf qilingan. Shundan birini hazf qilib jumlaning to‘liq qilganidan keyin istiora qilishlikka qariyna ham to‘liq qilinadi so‘ngra u jumlagi davom ettirib bir so‘z bilan mushabbah bihni quvvatlaydigan, ziynatlaydigan bir so‘z bilan so‘zlangan jumla bo‘ladi.

Mujarrad istiora – bu endi mushabbahga munosib bo‘lgan narsani istiora bilan zikr qilingan jumladir. Istiora jumlasini o‘zini qariynasi bilan mukammal bo‘lganidan keyin yana davom ettirib kelayotgan so‘z bu mushabbahni quvvatlaydigan mushabbahga munosib bo‘lgan so‘zni zikr qilingan jumladir.

Istiora mutlaq deb – u mushabbahbi hga yoki mushabbahga munosib bo‘ladigan narsalardan holi bo‘lgan istiora jumlasidir.

So‘fi Olloyor aytadilarki: "**quruq yurma quruq dastu ajalda solar nogoh gumon etmas mahalda**" quruq yurma ya'ni doim o'hiratinga savob bo'ladigan solih amallarni qilib yurgin. Keyingisi Quruq bu – sirtmoq. Ajalni qo'lida sirtmoq bor deyilyapti. Ajalni bir sirtmoq bilan hayvonni yetaklab ketadigan insonga o'xshatyaptilar, demak bu yerda ajal mushabbah mushabbahbi h hazb qilingan va uning bildirishlik qariynasi lavozimlari bo'ladigan sifat bir lavozim bilan ishora qilindi. ya'ni qo'lida sirtmoq bir insonga hayvon yetaklovchiga bo'lyapti. Tashbih istiora bu sarihiy tugadi. Keyingi misrada bo'lsa o'sha mushabbahbi hga munosib bo'lgan narsani zikr qilinyapti, ya'ni "solar nogoh gumon etmas mahalda", ya'ni sirtmoqni sen gumon qilmagan vaqtingda o'ylamagan vaqtingda solib yetalab ketib

<sup>11</sup> Xo‘jayev M. O‘sha manba. –B 3-5.

<sup>12</sup> Xo‘jayev M. O‘sha manba. –B 3-5.

qoladi deb aytyaptilar, demak bu istiora jumlası sarihiy istiora va murashshah ya'ni quvvatlagan mushabbahbiha munosib bo'lgan narsa bilan zikr qilindi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida istioraning turlari bo'lmish istiora tamsiliya (tasviriy metafora) ochiq istiora, kinoya istiora, asliy va tabiiy istiora, musharrah, mujarrad, mutlaq istiora va ularning lingvopoyetik xususiyatlarini yoritib berdim.

Qur'oni Karim, Hadislar, klassik arab adabiyoti mutafakkirlarining asarlarida istioraning moxirlik bilan qo'llanishi, unda jumalarning ta'sirli zikr qilinishini bilib oldik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Ibn Abul Isba. Badiul Qur'an. -Qohira 1377/1957, -B. 17-27
2. M.Kaya Bilgegil. Edebiyat Bilgi ve Teorileri. - Ankara 1980, -B. 154-169.
3. Yahyo ibn Ziyod. Mavnul-Qur'on. - Qohira, 1374/1955, 2-jild, -B. 91, 156, 263.
4. Ma'mar ibn Masanna. Nakiz. - Leiden, 1905-1908, 1-jild, -B 275; 2-jild, -B. 589.
5. Iskandar Pala. Devon shariyati lug'ati ensiklopediyasi. - Ankara 1995, -B. 290-291.
6. Rustamiy S. Sharq mumtoz adabiyotida balog'at ilmining o'ri.
7. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Forschadan A.Rustamov tarjimasi. -T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. -B. 219.